

8-SINFLARDA ONA TILI FANIDAN "GAP BO'LAKLARI" MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI

Vahobova Dilrabo Abdurahmonjonovna

*Namangan viloyati Kosonsoy tumani Maktabgacha va Maktab ta'limi bo'limiga
qarashli 29-sonli maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ish gap bo'laklari tushunchasini va ularni o'qitish metodologiyasini o'rganishga qaratilgan. Gap bo'laklari tilshunoslikda gapning ma'no va tuzilishini belgilovchi asosiy elementlardir.

Metodologiya sifatida o'qitish jarayonida interfaol usullar misollar va amaliy mashg'ulotlardan foydalanish taqdim etilgan. o'quvchilarni mustaqil fikrlashini rivojlantirish va til qoidalarini samarali o'zlashtirishda guruhli induvdial ishlar olib borishni takidlangan.

Natijada gap bo'laklarini o'qitish jarayoni o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga ularning kommunikativ qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu ish til ta'lim sohasida yangi yondashuvlar va metodlar ishlab chiqishga imkoniyat beradi.

Kalit so'zlar: Gap bo'laklari, tilshunoslik, o'qitish metodologiyasi, o'zaro bog'liqlik, ma'no, interfaol usullar, amaliy mashg'ulotlar, guruhli ish, induvdial ish, kommunikativ qobiliyat, til ta'limi, yangi yondashuv.

KIRISH

Mamlakatimiz o'z mustaqiligini qo'lga kiritgandan so'ng milliy qadriyatlarimizni, xususan ona tilimizni o'rganishni ilmiy nazariy va amaliy tomondan tadqiq etishga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda. Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning: - Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatni shakllantirish uchun o'zbek tilini o'qitish metodikasi oldiga katta vazifalar yuklaydi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistoda ilm fan barcha sohalarni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini jadal olib borish uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlaisga qilingan murojaatnomasida ham o'zini yaqqol ifodasini topdi. "Biz yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash" borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko'rsatish maqsadida "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunni yangi tahrirda qabul qildi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz" nomli asarida takidlaganidek, "Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini chuqur egallagan, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi"

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng milliy qadriyatlarimizni xususan ona tilimiz o'rganishni ilmiy-nazariy va amaliy tomonidan tadbiq etishga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda.

Mustaqil fikrli, ma'naviy yetuk yangi avlodni tarbiyalashda ona tilimizni o'rni beqiyosdir. Ma'lumki ona tili ta'limining bosh maqsadi o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini to'g'ri va ifodali fikrlash malakasini tarkib toptirish ularni imlo va uslubiy jihatdan savodxonlik qilishdan iborat. Ona tili fanini o'qitishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda ijodiylik mustaqil fikrlash, fikrni o'g'zaki va yozma shakllarida to'g'ri ravon ifodalash, ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. O'quvchilarning ravon nutqi esa sintaksis birligi bo'lgan gaplardan tuziladi. Sintaksis asosiy mazmun va mohiyati gapga qaratiladi. Gapni tashkil etuvchi bo'laklar esa gap bo'laklaridir.

O'zbek tilida gap bo'laklarini o'qitish jarayonini takomillashtirish maqsadida inter faol metodlarda foydalanib o'quvchilar darsga mavzuga oid qiziqishini ham ortib borish kerak. O'zbek tilshunosligida gap bo'laklariga oid ilmiy nazariy qarashlarini tadbiq etish va yangi avlod uchun mo'ljallangan 8-sinf ona tili darsligidan gap bo'laklari mavzusini o'qitishga oid metodik yordam sifatida interfaol metodlar va topshiriqlar ishlab shiqish maqsad qilib belgilandi.

Umumta'lim maktabi o'quvchilarida gap bo'laklariga oid nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda oson o'rganiladigan usullardan foydalanish zarur. Ma'lumki, ko'pgina tillarda gap ta'rif berishda, avvalo kommunikatsion vosita ekanligiga ta'kid beriladi. Gap bo'laklarini tadbiq etish va uni ta'lim jarayonida o'quvchilarga tez va samarali yetkazish uchun bu boradagi ishlar bilan tanishish va olingan xulosalarni interfaol metodlar vositasida o'quvchilarga yetkazish muhim vazifalardan hisoblanadi. O'zbek tilini sintaktik birligi ilmiy asosda atroflicha o'rganish XX-asrning 40-yillarida boshlandi. Sintaksis va uning o'rganilish tarixi chuqur ildizlarga ega. Sintaksisga oid qarashlar negizida gap va uning tarkibiy qismlari hisoblanmish gap bo'laklariga oid qarashlar ham o'z ifodasini topgan. Sintaksis - Grek tilidan olingan bo'lib gapning tuzilishini o'rganuvchi bo'limdir.

Asosan sintaksisning xarakter xususiyati shundaki, so'z va uning shakllarini, soda yoyiq va yig'iq gaplarni egali va egasiz gaplarni shaxs noma'lum va shaxsi umumlashgan gaplarni gapning bo'laklari va ikkinchi darajali gaplarni o'rganuvchi bo'limdir.

ASOSIY QISM

Umumta'lim maktabi o'quvchilarida gap bo'laklariga oid nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda oson o'rganiladigan usullardan foydalanish zarur. Ma'lumki ko'pgina tillarda gap ta'rif berishda, avvalo kommunikatsion vosita ekanligiga ta'kid beriladi. Gap bo'laklarini tadbiq etish va uni ta'lim jarayonida o'quvchilarga tez va samarali yetkazish uchun bu boradagi ishlar bilan tanishish va olingan xulosalarni interfaol metodlar vositasida o'quvchilarga yetkazish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Asosan sintaksisning xarakter xususiyati shundaki, soʻz va uning shakllarini, soda yoyiq va yigʻiq gaplarni egali va egasiz gaplarni shaxs nomaʼlum va shaxsi umumlashgan gaplarni gapning boʻlaklari va ikkinchi darajali gaplarni oʻrganuvchi boʻlimdir.

Dunyo fani rivojlanish bosqichida davom etar ekan fan sohasida yangi-yangi maʼlumotlar koʻplab uchhrab turadi. Hozirda oʻtiladigan darslaryabgi pedagogik texnologiyalar asosida olib borilmoqda. Oʻquvchilarga maʼlumotlar tez va oson yetkazish mumkin. Chunki, maʼlim innovatsiion pedagogik texnologiyalardan foydalanib olib boradigan dars sifati va oson tushuniladi.

Aslida gap boʻlaklari nima? Gap tarkibida maʼlum bir soʻroqqa javob boʻlib maʼlum bir sintaktik vazifada keluvchi soʻz yoki soʻz birikmalari gap boʻlaklaridir.

Shunday ekan, avvalo, gap boʻlaklari haqida toʻliq maʼlumotga ega boʻlish va ularni tahlili bilan toʻliq tanishib chiqish keying boʻlimlarni olishda oʻquvchiga ahamiyatlidir.

8-sinf ona tili darsligidagi bosh boʻlaklardan biri bu ega va kesimdir. Kesim gapning mazmuni boʻlib tasdiq, inkor, zamon, mayl, shaxs-son maʼnolarinini ifodalab keladi. Kesim, Nima qiladi? Nima qilyapti? Nima qilmoqchi? soʻroqlariga javob boʻladi. U hukumni ifodalaydi. Gapning asosiy belgilarini koʻrsatadi.

8-sinf ona tili darsligida egaga quyidagicha taʼrif beradi. Gapda kesim bilan bogʻlanib shu kesimdagi qoʻshimcha ifodalangan shaxs- sonni bildiruvchi va kim? Nima? Qayer? soʻroqlariga javob boʻladigan bosh boʻlak ega deb ataladi.

Oʻquvchilarga gapning bosh boʻlagi boʻlgandek ikkinchi darajali boʻlaklari xususida xilma-xil qarashlar mavjud. Aniqlovchi, toʻldiruvchi va holning turlari haqidagi sintaktik vazifalarni gaplar orqali tahlil usullarini oʻrgatish. Gap boʻlaklarini ajratishda ularning gapdagi joylashish oʻrni muhim sanaladi.

Gap boʻlaklarini tahlil qilishda nafaqat sintaktik bogʻlanish sintaktik vaziyat, balki semantika, ularning mazmuni jihati eʼtiborga olinishi lozim. Gap oʻquvchilarni nutqiy jarayonda shakllanar ekan, uning gap boʻlaklariga ajratish qonuniyatlarini yaxshi oʻrganish lozim. Gap boʻlaklarini oʻqitishda interfaol metodlardan toʻgʻri va oqilona foydalanish yaxshi samara beradi. Ular Oʻqituvchi va oʻquvchilarning oʻzaro faol munosabatlarda tashkil etiladigan dars turidir. Oʻquvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pogʻona koʻtaradi. Bu gap boʻlaklarining oʻqitishning asosiy maqsadi taʼlim jarayonida oʻquvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, shuningdek, olgan bilimlarini hayotiy dalillar va voqealar bilan qiyoslash shu asosda toʻgʻri xulosalar chiqarishni oʻrgatish ona tili taʼlimi maqsadi bilan mushtaraklik kasb etadi.



XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, tilshunoslik tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Bugungi kunda bu soha bo'yicha juda ko'plab tadqiqot ishlari ilmiy yangiliklar yaratilgan va hayotga tadbiiq etilgan. Tilshunoslikni asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan sintaksis qurilish azal-azaldan salmoqli tadqiqotlar mavzusiga aylanib kelgan. Barcha sinf

o'quvchilarga gap bo'laklari mavzusi yangilik bilan tushuntirib berish lozim. Gap bo'laklarini mustaqil so'z turkumiga aloqador ekanini o'quvchilar ongida va so'zlar orqali interfaol metodlardan foydalanib dars o'tishi kerak.

"Gap bo'laklari" mavzusi orqali biz gapning asosiy tarkibiy qismlari — ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol haqida chuqurroq ma'lumotga ega bo'ldik. Har bir gap bo'lagi o'ziga xos vazifani bajaradi va ularning to'g'ri ishlatilishi orqali gap mazmunli, tushunarli va grammatik jihatdan to'g'ri bo'ladi. Bu mavzu tilni to'g'ri va ravon ifodalash, matn tuzish, fikrni aniq yetkazish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, gap tahlili orqali tildagi mantiqiy bog'liqlikni anglash va tahlil qilish qobiliyatimiz yanada rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldasheva D. Ona tili maqsadining tadrijiy taraqqiyoti, TI – ensiklopediyasi
2. Yusupova T. Gapning bosh bo'laklarini o'rganish jarayonida o'quvchilar nutqini o'qitish kitob T – 2005
3. Falomov A. Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili-T O'qituvchi 1987-yil
4. Qahhorov A. Tanlangan asarlar T.G'afur G'ulom 2007
5. Qodirov M. Ne'matov H. Abdurahimov M. Sayfullayeva Ona tili 8-sinflar uchun darslik T-Cho'lpon 2010-yil
6. Shavkat mirziyoyevning – O'zbek tili - Davlat tili maqomi bo'lganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi Toshkent, 2019